




ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



муносабатларига таъсир кўрсатади. Бу муҳит, айниқса, ўзбек оилаларига хос бўлган кўп қатламли оилаларда ҳам, ёки фақат кув-келин яшайдиган оилаларда ҳам оғир кечади. Чунки уларнинг қарашлари, маълумоти, ёши, маданий савияси ва ҳоказоларда номувофиқлик мавжуд бўлиши мумкин. Ана шундай миллий-ахлоқий мезонларимиз: ҳурмат, ибодат, ҳаё, меҳнатсеварлик, саранжом-саришталик, озодалик, пазандалик, ғамхўрлик, меҳр-шафқат қабилад оила аъзоларини бир-бирига боғлаб туради. Зеро, улар болалиқдан бошлаб оила шажараси билан таништирилса, унинг етти авлоди ким бўлган, номлари, касб-кори, оиланинг энг қимматли аъзолари ва ҳоказолари билдириб борилса, бундай ҳолат ҳам унинг мустақамлигини сақлашда катта ёрдам беради.

Ота-онанинг энг муҳим бурчи фарзандлари тарбиясидир. Чунки болаларни ҳозирги давр талаби даражасида билимли, соғлом, маънавий баркамол қилиб тарбиялашда айнан ота-она бурчлидир. Шунинг учун ҳам халқимизда “Тарбия берган ота-онанга раҳмат!” деган нақл бор. Фарзанд хулқ-атвори, албатта, ота-онага ўхшайди.

Ота-онанинг ўзи пок бўлиши, уйқудан эрта туриши зарур. Танни тоза сақлаши муҳим. Ота-она сузишни билиши, чиройли ёзиши, сўзлаганда одоб қоидаларига риоя қилмоғи, жамоат жойлари, тўй-ҳашамлар, гурунлар, йиғинларда ўзини тутиш қоидаларига амал қилиши, иши билан сўзининг бирлиги, Ватани, ўз халқини севиши, унга хизматда соф, ғайратли, фидокор бўлиш қаби фазилатларга эга бўлмоғи жуда муҳим.

Оилада ота-онанинг ростгўй ва тўғри бўлишлари болаларини ҳам ростгўйликка ундайди, ёлғончилик мунофиқликни таркиб топтиради. Ота ва она хулқ-атворининг бир-бирига зид бўлиши фарзандларнинг уларга нисбатан ишончини йўқотади. Ота ва она биргаликда тотув ҳаёт кечирсалар, бир-бирини ҳурмат этсалар, унда болалар ҳам олийжанобликка ўрганадилар. Масалан, оталар болаларининг кўз олдида уларнинг оналарига яхши муомала этса, болалар ҳам бунга риоя этадилар, улар ўзлари уйланганларида ҳам турмуш ўртоқларига шундай муомалада бўладилар.

Оилада ота ва она ўртасидаги ёлғончилик, ота томонидан онани уриб-сўкмоқ болаларда жоҳилликка мойилликни шакллантиради.

Шунинг учун ҳам ота-онанинг биринчи вазифаси ва бурчи оилани моддий томондан таъминлаш, рўзғорни тўғри юритиш билан бирга фарзандлари кўзи олдида маънавий юксак, намуна бўлишларидир. Чунки бугун фарзанднинг ота-она хонадонидан кўрган, билган нарсалари эртага турмуш иқир-чиқирлари ўртасида ўралашиб қолмаслиги, ўзига тўғри йўл танлай билишида ёрдам беради.

Ота-она дастлаб фарзандига яхши от қўяди. Бунда унга илм олиши учун мактабга бормоғи, чуқур ва мустақам билим олишини кузатиб бориши зарур. Шу билан бирга, ҳунар ва касб ўргатиш ҳар бир ўғил ва қиз фарзандга ҳам қарз ва фарздир.

Ҳар бир ҳунарни ўз фарзандига ўргатиш ота-онанинг вазифасидир. Улар ота-онага итоатли, одобли, хулқ-одобнинг барча талабларини адо этишга ўргатилади. Қизлар тарбияси билан асосан оналар шуғулланади. Шунинг учун ҳам “Онанини кўриб қизини ол” деган нақл бекорга айтилмаган. Ўзбек оилаларида тарбияли оналар қизларини ўздан катталарга ҳурмат кўрсатиш, улар билан сўзлашганда ўзини вазмин тутиш, бетгачопарлик қилмаслик, осойишта жавоб беришга ўргатади. Буларни баъзилар ожизлик белгиси деб аташ ҳоллари ҳам бўлмоқда. Аммо шарқона ахлоқ-одоб меъёрлари худди шуни талаб этади.

Латофатли, босиқ, мулоҳазали, андишали, ўзини тута билиш, ёмон гуруҳдан ўзини тортиш, беҳаё қилиқлар қилмаслик қаби хислатларга эга бўлган оналар ўз қизларида ҳам шу хислатларни пайдо қилишга ҳаракат қиладилар. Бундан ташқари, ўзбек хонадонларида уйни йиғиштириш, тонгда туриб эшик очиб, ҳовли ва дарвоза олдини супириб сув сепиш, кийим бичиш ва тикиш, кир ювиб, дазмол босиш ишлари, айниқса, қизларга келгуси оилавий ҳаёт қуришда зарурдир. Ҳозир қизларимизнинг бу ишлардан четда тарбияланиши уларнинг келин бўлиб тушган оилаларда кўнгилсизликларга олиб келиб, ҳатто ёш оилаларнинг бузилиб кетишига ҳам сабаб бўлмоқда. Дипломли яхши мутахассис бўлгани билан оилавий ҳаётга тайёр бўла олмагани туфайли, бекалик, оналик бурчини бажара олмапти.

Демак, ҳунар, адаб, билим бериш ота-онани фарзандга меросдир.

Ота-онанинг муҳим бурчларидан яна бири болага яхши ном қўйиш бўлиб, унинг оти билан чақирганларида у уяладиган бўлмаслиги керак.

Фарзанд балоғатга етгандан сўнг уларнинг рўзғор юритишга қобилияти борлигини синаб, билиб ота-она унинг оила қуришига ёрдам беради.

Аммо алломалар ҳам, ҳозирги тиббиётимиз ҳам ўғилни уйлантирганда, қизни узатганда қариндошларга эмас, бегоналар билан қуда бўлиш зарурлигини алоҳида таъкидлайди. Аммо қиз фарзандни барча рўзғор ишларини юритишга ўргатиб, одобли ва билимли бўлганига ишонч ҳосил

O‘ZBEKISTON VA FINLYANDIYA TA’LIM TIZIMI: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

Maqolada Finlyandiya ta’lim tizimi tahlili keltirilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonini shakllantirishning tarixiy taraqqiyoti ko‘rib chiqilgan. Hozirgi bosqichda pedagogik innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari va o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, tarbiya, erta bolalalik ta’limi, badiiy ta’lim, maktab.

В статье представлен анализ финской системы образования. Рассматривается историческое развитие становления современного образовательного процесса. На современном этапе раскрываются социально-экономические факторы педагогических нововведений и особенности обучения.

Ключевые слова: образование, воспитание, дошкольное образование, художественное образование, школа.

The article provides an analysis of the Finnish education system. The historical development of the formation of the modern educational process is considered. At the present stage, the socio-economic factors of pedagogical innovations and the peculiarities of teaching are revealed.

Key words: continuing education, upbringing, early childhood education, art education, school.

Kirish. Bugun ta’lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmiga aylandi. Buni ayni vaqtda xorijiy davlatlarda ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilayotganligidan ham anglash mumkin. Guvohi bo‘lganimizdek, maorif tizimiga ulkan sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan davlatlardan biri – Finlyandiyadir. Finlyandiya davlati ta’lim tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. So‘nggi yillarda xorijiy ta’lim muassasalarida ilm-fanning eng zamonaviy yo‘nalishlari va ilg‘or texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash” bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdilar [2]. Yurtimizda ta’lim–tarbiya tizimi nafaqat yangi huquqiy zamin asosida shakllangan kuchli moddiy–texnika bazasiga ega bo‘ldi, balki u dunyo standartlariga javob beruvchi yangi mutaxassis–kadrlarni tayyorlovchi, doimiy taraqqiyot imkoniyatlariga ega bo‘lgan ulkan tizimga aylantirilmoqda.

Bu muhim vazifalar aynan ta’bir joiz bo‘lsa, har bir professor-o‘qituvchiga daxldor ekanligini dildan his etmog‘imiz zarur.

Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, maktab ta’limi bo‘yicha ilg‘or davlatlar tajribasini, xususan, Finlyandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, xalqaro baholash dasturlarida erishayotgan muvaffaqiyatlarini o‘rganish, ta’lim sifatini oshirish, maktablarda o‘quv yuklamasi, darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqatgina yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish [3] bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Asosiy qism. Geografik mintaqa turlicha bo‘lganligi sababli, turli mamlakatlarda ta’lim tizimi turlicha. Jumladan, maorif tizimiga ulkan sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan davlatlardan biri – Finlyandiyadir. Finlyandiya ta’lim tizimi jahon maorifida yetakchi brendga aylandi. Shuningdek, Finlyandiya ta’lim tizimi yuksak shuhrat qozongan va dunyodagi eng samarali ta’lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Bir necha yillar davomida ushbu mamlakat ilm-fan, matematika va o‘qish bo‘yicha Qo‘shma Shtatlardan ustun keldi [4]. Finlyandiya hukumati maktab ta’lim tizimining mustaqilligi va moslashuvchanligini oshirishga, shuningdek, ta’lim siyosatini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini oshirishga yo‘naltirish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan qator islohotlarni amalga oshirdi.

Finlyandiyada ta’limi yuqori standartlarga ega. Turli maktablar o‘rtasidagi ta’lim natijalaridagi farqlar unchalik katta emas va deyarli barchasi boshlang‘ich maktabni belgilangan vaqtda tamomlaydi. Maktabgacha, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bepul, hatto undan keyingi ta’limning aksariyati bepul. Maqsad - har bir kishi oilaviy daromadidan qat’iy nazar sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lish va faol fuqaro bo‘lib shakllanishidir.

Finlyandiyada zamonaviy ta’lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

- odatda majburiy ta’lim boshlanishidan oldin bolalarga beriladigan erta bolalik ta’limi (maktabgacha ta’lim);
- maktabgacha tarbiya, bu, asosan, bolalar uchun majburiy ta’lim olishdan bir yil oldin ta’minlanadi;
- to‘qqiz yillik asosiy ta’lim (boshlang‘ich maktab);
- o‘rta maktabdan keyingi ta’lim, shu jumladan, kasb-hunar ta’limi va o‘rta ta’lim;
- politexnika va universitetda beriladigan oliy ma’lumot;
- bundan tashqari, kattalar ta’limi ta’limning barcha darajalarida mavjud.

Erta bolalik ta’limi. Finlyandiyada bolalar maktab yoshidan oldin maktabgacha ta’lim olish huquqiga ega. Erta bolalik ta’limi bolalar bog‘chasida va oilaviy kunduzgi tibbiyot muassasasida beriladi. Bola, shuningdek, bolalar maydonchasida ota-onasi bilan birgalikda erta bolalik ta’limi jarayonida ishtirok etishi mumkin. Agar ota-onalar ishlayotgan yoki o‘qiyotgan bo‘lsa, bola haftasiga kamida 20 soat yoki undan ko‘proq vaqt mobaynida maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim olishi mumkin. Maqsad - bolaning rivojlanishi va farovonligini qo‘llab-quvvatlash. Bolaning ijtimoiy va qo‘l sensomotor qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, unga turli sohalar bo‘yicha ilk tushunchalarni shakllantirishga etibor qaratiladi. Bola ko‘proq o‘rganishga yordam beradigan ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradi [8].

Kun davomida qiziqarli o‘yin va ochiq havoda tadbirlar uyushtiriladi. Agar bola boshqa millat vakili bo‘lsa, u fin yoki shved tilini o‘rganishi uchun imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, agar bola uchun zarur bo‘lsa, maxsus ta’lim olishi ham mumkin.

Maktabgacha ta’lim. Finlyandiyada bolalar majburiy ta’lim boshlanishidan avval, bir yil davomida maktabgacha ta’limga qatnashishlari shart. Odatda, maktabgacha ta’lim bola olti yoshga to‘lgan yildan boshlanadi. Maktabgacha tarbiya, odatda, haftaning dushanba kunidan juma kuniga qadar har kuni to‘rt soat davomida tashkil etiladi. Finlyandiyada munitsipalitetlar ta’limni tashkil qiladi. U soliq pullari hisobidan moliyalashtiriladi. Shuning uchun bu juda ko‘p oilalarga qulaylik yaratadi. Bundan tashqari, Finlyandiyada xususiy ta’lim muassasalari ham mavjud bo‘lib, u yerda o‘qituvchi va enagalar bolalar bilan ishlashlari mumkin.

Asosiy ta’lim. Asosiy ta’lim Finlyandiyada bola yetti yoshga to‘lgan yili boshlanadi. Finlyandiyada doimiy yashovchi barcha bolalar asosiy ta’limda qatnashishlari shart. Boshlang‘ich maktabda o‘qish 9 yilni tashkil etadi. Majburiy maktabda o‘qish bola asosiy ta’lim dasturini to‘liq tugatgandan so‘ng yoki majburiy maktab boshlanganidan o‘n yil o‘tgach tugaydi.

Finlyandiyada qonunchilik asosiy ta’limni boshqaradi. Bundan tashqari, milliy o‘quv dasturlari mezonlari va mahalliy o‘quv dasturlaridan foydalaniladi. Baladiyya asosiy ta’limni tashkil qiladi. U soliq pullari hisobidan moliyalashtiriladi va shu sababli oila hech qanday xarajat qilmaydi. Quyi sinflarda haftasiga taxminan 20 soat dars o‘tiladi, yuqori sinflarda esa ularning soni oshib bormoqda.

Boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining barchasi Finlyandiyada magistr darajasiga ega. 1-6 sinflarda dars beradigan boshlang‘ich maktab sinf o‘qituvchilari ta’lim fanlari bo‘yicha ixtisoslashgan. 7-9 sinf o‘qituvchilari o‘qitadigan fanlari bo‘yicha ixtisoslashgan. O‘qituvchilar milliy va mahalliy o‘quv dasturi asosida mustaqil ravishda o‘qitishni rejalashtirish imkoniyatiga ega. So‘nggi yillarda o‘quv dasturida ko‘p tarmoqli sohalar qatori kundalik hodisalarni o‘rganish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Umumiy ta’lim maktabi to‘qqiz yillik o‘qishni o‘z zimmasiga oladi va bolalar unga yetti yoshidan boshlab borishadi. O‘quv yili 188 kun davom etadi va uni munitsipalitetlar kuz va bahorgi semestr oralig‘ida mustaqil ravishda ajrtadilar; ko‘pincha yilning birinchi yarmi 89 o‘quv kuni, bahor yesa 98 kun davom etadi. Darslar avgustda boshlanadi va may oyining oxirida tugaydi [5]. Maktablarda bolalar xavfsizligi va ta’lim jarayonini ta’minlashga e’tibor beriladi [4].

Bola uyiga eng yaqin bo‘lgan maktabga boradi. Agar maktab ikki yarim kilometr masofada joylashgan bo‘lsa, unda qonunga ko‘ra, o‘quvchi (6-sinfgacha) munitsipalitet mablag‘lari hisobidan tashkil etilgan avtobusda borish imkoniyatiga ega. Maktab darsliklari va barcha ish yuritish o‘quv materiallari o‘quvchilarga bepul tarqatiladi va fin tili, matematika, tabiiy tarix va uy xo‘jaligi darslari o‘rgatiladi. Din asoslari (lyuteranizm yoki pravoslavlik) bo‘yicha ta’lim faqat ota-onalarning roziligi va dinga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Kutubxona javonlari maktab zallarida joylashgan bo‘lib, o‘quvchilar undan erkin foydalanishi mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Finlyandiya zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanish tarixi 1924-1926-yillarga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilar quyi sinflarda baholanmaydi, balki og‘zaki rag‘bat ishlatiladi: a‘lo, yaxshi, o‘zgaruvchan va “tayyorgarlik talab qilinadi”. 4-sinfdan o‘quvchilar bilimi ballar asosida tekshirilib, 4 balldan 10 ballgacha tizimda baholanadi. Shuningdek, xulq-atvor uchun baholar mavjud. Masalan, guruhiy, individual ishlash qobiliyati, yaxshi mutaxassis va boshqalarga ijobiy tomondan ta’sir qilish istagi kabi. 3-

sinf dan boshlab fanlarga birinchi chet tili - ingliz tili qo‘shiladi. 5-sinf dan – ikkinchi chet tili (nemis, fransuz tili) tanlov bo‘yicha o‘qitiladi. Xorijiy o‘quvchi (masalan, muhojir oilasidan) ona tilini birinchi sinf dan o‘rganish huquqiga ega. 7-sinf dan boshlab ular ikkinchi davlat tili - shved tilini o‘rganishni boshlaydilar. Quyi sinflarda mavzular birlashtiriladi (kimyo, fizika va biologiya bilan, til adabiyoti bilan) va uy iqtisodiyoti fani barchaga o‘rgatiladi. Finlyandiya maktablarida o‘quvchilar juda ko‘p narsalarni yozadilar: insho orqali bolani bir masala bo‘yicha turlicha shaxsiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishga va uni adabiy tilda bayon etishga o‘rgatiladi.

Fin maktablarida o‘quvchilar katta va haqiqiy hayotga tayyorlanadilar. Suzish darslarida o‘quvchilar cho‘kayotgan odam belgilari, uy xo‘jaligi darslarida esa ovqat tayyorlash, bichish va tikish o‘rgatiladi. Fin maktablarida ko‘proq e‘tibor tabiatga do‘stona munosabatda bo‘lishga, tabiatni asrab-avaylashga qaratiladi. Fin o‘quvchilari uchun portfolio tayyorlash yoki shaxsiy sayt yaratish bir zumlik vazifadir. Eng asosiysi fin maktablarida ta‘lim jarayoni o‘quvchilarni yangi va o‘zgarib borayotgan dunyo muhitiga moslashib ketishga o‘rgatadi. Qiyin formulalarni yod olish yoki sanalarni eslab qolishga o‘rgatilmaydi, chunki bularni har doim internetdan ko‘rib olsa bo‘ladi [7].

Asosiy ta‘limdan so‘ng o‘rta ma‘lumot - o‘rta maktab va kasb-hunar ta‘lim muassasalarida beriladi. O‘rta ta‘lim odatda talabalar uchun bepul. Biroq, darslik, kitob va boshqa o‘quv materiallarini o‘quvchilarning o‘zlari sotib olishlari kerak. O‘rta maktab ta‘limi umumiy ta‘limdir, kasb malakasini bermaydi. O‘rta ta‘lim umummilliy imtihonlar bilan yakunlanadi. Unda qatnashgan o‘quvchilar universitet, politexnika yoki kasb-hunar ta‘limi aspiranturasiga hujjat topshirishlari mumkin. O‘rta maktabda ta‘lim odatda 3 yil davom etadi. Ko‘pgina o‘rta maktablarda ta‘lim fin yoki shved tillarida olib boriladi. Katta shaharlarda ingliz yoki fransuz tillarida ta‘lim beradigan o‘rta maktablar ham mavjud. Maktabni tugatgandan so‘ng, yoshlar o‘qishni gimnaziyada davom ettirishi mumkin, gimnaziyaning tugatish sertifikatiga ega bo‘lish uchun o‘quvchi imtihon topshiradi yoki o‘rta kasb-hunar ta‘limi muassasasida o‘qishni davom ettiradi.

Kasb-hunar ta‘limi darajalariga kasb-hunar bakalavriat darajasi, kasb-hunar darajasi va mutaxassis kasb-hunar darajasi kiradi. Bakalavrning kasbiy malakasi ushbu sohada zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni ta‘minlaydi. Kasb-hunar va mutaxassis kasb-hunarga oid malakasi kasbning turli bosqichlarida vakolatlarni rivojlantirishga imkon yaratadi. Kasbiy malakaning ko‘lami kompetensiya ballari bilan ifodalanib, 180 bakalavriat darajalari, 150 kasb-hunar darajasi va 180 maxsus kasb-hunar darajalari vakolatlaridan iborat.

Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish rejasi kasb-hunar ta‘limi muassasalari bilan tuziladi, unda o‘qitishning mazmuni, jadvali va o‘qish usullari kelishib olinadi. Kasb-hunar ta‘limi, masalan, ish joyida o‘quv va o‘qitish shartnomasi orqali tashkil etilishi mumkin va turli yo‘llar bilan olingan ko‘nikmalar iloji boricha tadqiqotlar doirasida aniqlanadi. Treningga yoshlar ham, kattalar ham murojaat qilishlari mumkin. Kasbiy darajani bitirganlar politexnika yoki universitetning aspiranturasiga hujjat topshirishlari mumkin.

Finlyandiya oliy ta‘lim tizimi universitetlar va politexnikalardan iborat. Universitetlar ilmiy izlanish olib borish va unga asoslangan oliy darajada o‘qitish bilan ajralib turadi. Politexnika ta‘limi mehnat hayotiga yo‘naltirilgan va faoliyat u tomonidan belgilangan yuqori professional talablarga asoslanadi.

Universitetlar, fan va san‘at kollejarida bakalavr va magistr darajasi, shuningdek, litsenziyalash va doktorantura kabi aspiranturadan keyingi ilmiy darajalar mavjud. Politexnika darajalari va undan yuqori politexnika darajalari - amaliy fanlar universitetida to‘ldirilishi mumkin.

Universitet bakalavriatining yakuniy muddati 3 yil va universitet magistr darajasi uchun, odatda, bakalavr darajasidan keyin 2 yil. Politexnika darajasini olish uchun 3,5 dan 4,5 yilgacha vaqt ketadi. Magistraturada o‘qishning zaruriy sharti - politexnika darajasi yoki boshqa tegishli daraja va avvalgi darajani tugatgandan so‘ng kamida ikki yillik ish tajribasi talab qilinadi.

2013-yilda Finlyandiya 25 ta [7] ta oliy o‘quv yurtlari mavjud edi: o‘nta universitet, o‘nta ixtisoslashtirilgan institut (ular texnologiya, biznes va iqtisod, san‘atni o‘rganishadi) va harbiy akademiya ham universitetlar qatoriga kiradi. 2014-yilda Ta‘lim vazirligi universitetlar kunduzgi o‘qish kvotasini 3 mingga ko‘paytirdi [7]. Universitetlar orasida eng qadimiy va eng taniqli - Xelsinki universitetidir.

Finlyandiya bakalavr darajasida va keyingi bosqichlarda o‘qishni rejalashtirayotganlar uchun juda ko‘p sonli dastur mavjud. Dasturlar fin, shved va ingliz tillarida tayyorlangan. Oliy ma‘lumot, boshlang‘ich ta‘lim kabi, mamlakat fuqarolari uchun, Yevropa Ittifoqi va Yevropa iqtisodiy hududidan kelgan chet elliklar uchun, shuningdek, talabalar almashinuvi uchun mutlaqo bepul. 2016-yildan xorijlik talabalar uchun pullik ta‘lim joriy etildi, uning narxi yiliga o‘rtacha 4 ming yevroni tashkil etadi. Bir qator talabalar universitetda o‘qish uchun bankdan kredit olishadi.

Universitetda o‘qitish va universitet pedagogikasi. Universitet ta‘limining vazifasi an‘anaviy ravishda talabalarni o‘qitish va yangi bilimlarni ishlab chiqish, uzatish va izohlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Biroq, universitet ta‘limidan maqsad - nafaqat kasbiy ma‘lumotli yoki mahorat va

qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, talabaga ustozlik qilish, tanqidiy fikr yuritish va erkin fuqaro sifatida shakllantirishdir. Bunday ko‘nikmalarni o‘rganish va o‘qitish universitet o‘qituvchilariga bir qator talablarni qo‘yadi.

Finlyandiya ta‘lim tizimini belgilaydigan asosiy prinsiplar qanday? Buning ortida bir nechta faktlar bor. Finlyandiya maktablari o‘quv kunlari qisqa. Talabalar o‘zlarining ta‘lim yo‘nalishini erkin tanlashlari mumkin. Finlyandiyaning dastlabki ta‘lim tizimi o‘yin orqali o‘rganish konsepsiyasi atrofida birlashadi. 6 yoshga qadar bolalar maktablarga borishlari shart emas.

Finlyandiya qanday qilib barcha fuqarolarga universal va keng qamrovli ta‘lim bera oladi? Finlyandiya xalqi ta‘limni qadrlaydi va o‘z vaqtini eng yaxshi ta‘lim tadqiqotlariga rioya qiladigan tizimni yaratishga sarflaydi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, fin o‘quvchilari sayyoraning eng yaxshi o‘quvchilaridan biri ekan. Qiziq jihati shundaki, finlyandiyalik o‘quvchilar boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan maktabda kamroq vaqt o‘tkazadi. Shunday bo‘lsa-da, fin ta‘lim tizimi dunyoning eng muvaffaqiyatli ta‘lim tizimi sifatida e‘tirof etilmoqda.

Finlyandiya akademiyasi (AF) Ta‘lim vazirligining ma‘muriy tuzilmasida joylashgan. Finlyandiya akademiyasi Finlyandiyaning xalqaro hamkorlik koordinatori bo‘lib, birinchi navbatda Yevropa Ittifoqi va Yevropa ilmiy jamg‘armasi orqali faoliyat yuritadi. Finlyandiya akademiyasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari mamlakatning ilmiy siyosati yo‘nalishlarini ishlab chiqish, ilmiy ishning obro‘sin va ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish samaradorligini oshirishdir.

2012-yilda Finlyandiya axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha uchinchi o‘rinni egalladi (142 davlat orasida) [7]. Mamlakatda oilalarining 80 foizida kompyuter bor (reytingda 16-o‘rin); Aholining 87% muntazam ravishda Internetdan foydalanadi (dunyoda 7-o‘rin); Wi-Fi-dan aholining 61% foydalanadi.

Xulosa. Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun kadrlar tayyorlashda uzluksiz ta‘lim tizimi muhim o‘rin tutishini inobatga oladigan bo‘lsak, hozirgi kunda O‘zbekiston ta‘lim tizimini rivojlantirish maqsadida xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va xalqaro standartlarga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/16188>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://www.lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
4. Biggs, J. B. 2003. Teaching for quality learning. What the student does. (2nd ed.) Ballmoor, Buckingham: Society for Research into Higher Education, Open University Press.
5. Gibbs, G. & Coffey, M. 2004. The impact of training of university teachers on their teaching skills, their approaches to teaching and the approach to learning of their students. Active Learning in Higher Education, 5, 87 – 100.
6. <http://old.uza.uz/oz/society/finlyandiya-ta'lim-tizimi-muvaffaqiyati-03-11-2020>
7. wikipedia.org/wiki/Finlyandiya
8. <https://minedu.fi/koulutusjarjestelma>.